

IJTIMOIIY FANLAR

XALQ QO'SHIQLARINING MILLIY MADANIYATIMIZDAGI O'RNI

NAIMOV MUZAFFAR O'RINOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

UO'K: 494.375.371.3

naimov@dpi.uz

Kalit so'zlar:

musiqiy til,
meros, janr,
an'ana, ijro
uslubı, kuy,
qo'shiq, jumla,
silsla.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada o'zbek xalq qo'shiqlarining milliy madaniyatimizdagi o'ni, o'ziga xosligi hamda ahamiyati yoritilgan.

МЕСТО НАРОДНЫХ ПЕСЕН В НАШЕЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ

Ключевые слова:

музыкальный язык,
наследие, жанр,
традиция, стиль
исполнения,
мелодия, песня,
предложение,
сериал.

Аннотация:

В статье описывается место, уникальность и важность узбекских народных песен в нашей национальной культуре.

THE PLACE OF FOLK SONGS IN OUR NATIONAL CULTURE

Key words:

musical language,
heritage, genre,
tradition,
performance style,
tune, song,
sentence, series.

Abstract. This article describes the place, uniqueness and importance of Uzbek folk songs in our national culture.

Xalqimiz qalbining eng nafis va nozik hissiyotlarini to'iqini bo'lmish qo'shiqlar milliy madaniyatimizning bebaho xazinası hisoblanadi. Misralarga aylangan qanotli orzular hamda go'zal tashbehlarğa yo'g'rilgan xalq qo'shiqlari-yor-yor, o'lan, lapar, kelin salom, alla va xilma xil taronalar hech qachon tarovatini yuqotmaydi. Nafosat gulshanida ungan bunday badiiyat qatralari shaxs ma'naviy komilligining ilk sarchashmasi bo'libgina qolmay, o'zida ajdodlarimizning yaratuvchanlik, bunyodkorlik, ezgulik va muhabbat bilan bog'liq ulug'vor qarashlarini aks ettirganligi uchun ham umrboqiy qadriyatlar tizimiga aylangan. [1...,3bet]

Ma'lumki, qo'shiq insonning his-tuyg'ularini ko'rsatib beruvchi sadoqat, quvonch, g'am, sog'inch, alam, umid kabi omillar orqali paydo bo'ladi. Mana shu omillar ohang, kuy va so'z ta'sirida qo'shiqqa aylanib insoniy tuyg'ularni ifodalaydi. Bebaho ma'naviy xazinamiz hisoblangan qo'shiqlarimizning ko'p qismini to'y marosim qo'shiqlari tashkil etadi. Bu qo'shiqlar "voqeabandligi, ijro etish o'rni, obrazlar silsilasi bilan boshqa tur qo'shiqlardan keskin farq qiladi. To'y bola, kelin, kuyov, ona, ota, singil, yangalar, qizning dugonalari, kuyov jo'ralari, qo'shnilar, qudalari obrazlari to'y qo'shiqlari asosini tashkil etadi". [2...,6bet]

Xalqimizning kop asrlilik e'tiqodiy qarashlari, urf-odat va an'analarini o'zida saqlab kelayotgan qo'shiqlarning tasnifini belgilash, janrlar asoslari, kuy tuzilishi, ijro uslublari ayniqsa, musiqiy tilini tadqiq etish shuni ko'rsatdiki, bu janrlar tarkib jihatidan ma'lum turkumlarga ajraladi. Bular orasida oilaviy marosimlar tarkibida marosim qo'shiq va aytimlari qadimgi ajdodlarimizning oila shart-sharoitlariga aloqador e'tiqodiy qarashlari, turmush kechinmalari, urf-odatlari va rasm-rusumlari bilan chambarchas holda yuzaga kelgan bo'lib, ana shu bog'liqlikda yashab keladilar.

Qo'shiq xalqimiz hayotida katta o'rin tutadi, chunki u yaxshi va yomon kunlarida qo'shiqqa murojaat qiladi, qo'shiq bilan o'z shodligini bildiradi, dard-armonni kuylaydi. Mana shuning uchun ham qo'shiq inson hayotida unitilmay, avlodlardan-avlodlarga uzatilib, asrlar osha yashaydi. Qo'shiq mazmun, ohang, so'z, vazn, qofiya, ritm-usul, lad jihatdan bir-biriga teng, uyg'un ohang-jumlalarni qo'shish orqali kuylanadi. Qo'shiq Alisher Navoiy qayd etganidek, "arg'ushtak usulida" yani raqsga tushib ijro etiladigan xalq lirik asariga mansub asardan iborat. [3...,76bet]

Darhaqiqat, xalq qo'shiqlarining maftunkorligi, ulardagi mazmun, kuy, so'z va shaklning uyg'unligi; g'oya, ohang, ritm, obraz, tasvir hamda ifoda kabi qo'shiqni tashkil etuvchi komponentlarning joylashishi, yaxlit asar sifatida shakllanishi va ijro etilishi bilan ajralib turadi. Xalq qo'shiqlarining g'oyaviy-badiiy vazifalari, qo'shiq butunligini tashkil etishda kuy-ohang, so'z va ijro mutanosibligi va ularning o'ziga xosligi ancha vaqtlardan buyon ko'plab ilmiy izlanishlarga ob'ekt bo'lib kelmoqda.

Xullas, xalq qoshiqlari ichki qonuniyatlari uchun ijodkorning niqtayi nazari, maqsadi, asarda so'z va ohang tartibi, ularning o'zaro muvofiqligi, tasvir va ifodada me'yor va mezonni saqlash, obrazlar birligi kabi talablar hamma vaqt zaruriy shartlar bo'lib qoladi.

Xalq qo'shiqlari kuy, ohanglari, shakli, mazmunan boyligi, sodda ijro uslubi bilan o'ziga rom etadi. Ular asrlar osha ijro etilib kelingan va shu bois har bir ijrochi ularni oz dardi va quvonchi bilan bog'lab ijro etishi mumkin. Mana shunday ijrolar jarayonida xalq qo'shiqlari ham mazmunan, ham shakl nuqtayi nazaridan sayqal topib boradi. Shu tufayli xalq qo'shiqlarida turli tuman variantlar vujudga keladi. Har bir musiqa asarining janr tabiati, mavzui, tanlangan voqea-hodisa, obrazlar va kechinma-tuyg'ular, hayotiy mantiq va badiiy mantiq muvofiqligi har qanday kishini ijro etishga majbur qiladi. Xalq qo'shiqlarida kuy jummalari va ohanglarni joylashtirish tartibi, ayniqsa, musiqiy tili kabi talablar ham hamma vaqt zaruriy shartlar bo'lib qoladi.

Xalq qo'shiqlari necha-necha asrlardan buyon bizning davrimizgacha turli sharoitlarda o'ziga yo'l topib rivojlanib, sayqal topib etib kelgan. Hozirgi sharoitda, o'ta savodxonlik barqaror bo'lgan davrda ham xalq qo'shiqlari o'ziga boshqa shaklda, boshqacha sharoitda yo'l topayapti. Shu narsani aytishimiz lozimki, xalq qo'shiqlari

- bebaho xazina. Ana shu xazinani to'plash, o'rganish, targ'ib etish, ularni nota chizig'iga ko'chirish, hamda ularni saqlash lozim. [4...,3-b]

Xalq qo'shiqlari milliy madaniyatimizning eng qadimiy va umrboqiy badiiy silsilalaridan biri bo'lib, ajdodlarimizning turmush tarzi, an'analari, orzu-intilishlarining o'ziga xos qomusidir. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlarini keng ommalashtirish milliy o'zlikni anglashga muhim ahamiyat kasb etadi.

"Tengsiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz san'atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol etkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir". [5...,2-b]

Demak, xalq qo'shiqlari ajdodlarimizdan bizgacha bobodan o'g'ilga, momodan qizga, ustozdan shogirdga an'anaviy ya'ni og'izdan-og'izga o'tib etib kelgan. Respublikamizning barcha viloyatlarida tashkil etilgan folklor-etnografik ansambllar ana shunday xayrli ishni xalq qo'shiqlarini ommaviy tadbirlarda, umumxalq bayramlarida, festivallarda, ko'rik tanlovlarda zamonga moslashtirib, sayqallashtirilib ijro etishmoqda. Xalq qo'shiqlarini targ'ib etish, o'rganish, ijro etish orqali urf-odatlar, udumlarimiz, mavsumiy, oilaviy, mehnat marosimlari bilan bog'liq qo'shiqlarni hamda milliy qadriyatlarimizga nisbatan yoshlarimizni milliy madaniyatimizni o'rganishlariga zamin yaratgan bo'lamiz.

Adabiyotlar ro'yxati; Библиографические ссылки; References:

1. Naimov M.U. Qadim Surxon navolari. T.: „San'at“, 2006.3-bet.
2. Musaqulov A, Mirzayeva M. Ostonasi tillodan.-T.: Fan,1993.-6 b.
3. Razzoqov X., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki ijodi.-T./ O'qituvchi,1980,75b.
4. Surxon qo'shiqlari 1-qism. Termiz./ Jauhun nashriyoti.1997y,3b.
5. Naimov.M.(2024). Musiqa mashg'ulotlarida bolalarga folklor qo'shiqlarni o'rgatish. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 1047–1051. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/33779>
6. Muzaffar, O. (2024). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarida bolalarga folklor qo'shiqlarni o'rgatish. Oriental Art and Culture, 5(1), 204-207.
7. Naimov.M. (2024). SONG GENRE - ITS PLACE IN FOLKLORE ART. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 1067–1072. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/33783>
8. Naimov.M. (2024). FOLKLORE SONGS TO CHILDREN IN MUSIC CLASSES. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 1063–1066. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/33782>
9. Naimov, M. (2022). Surxondaryo folklor-etnografik. Xalq havaskorlik" jamoalari". Toshkent.
10. Urinovich, N. M. (2022). Uzbek traditional songs (the XX century is on the example of the southern Uzbekistan oasis). Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(1), 318-321.